

ORDERLARNING ARXITEKTURA YODGORLIKLARIDA QO‘LLANILISHI

Sa’dullayeva Nigora Bahrom qizi¹


Axmatova Mohiniso Abror qizi²

Xudaynazarova Asila Shaymardon qizi³

Annotatsiya: Ushbu maqolada orderlar haqida umumiy ma’lumot berilgan bo‘lib, ularning qo‘llanilishi va turlari keltirib o‘tilgan. Qadimgi Rim hamda Qadimgi Yunon orderlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berilgan hamda bir-biridan farqi keltirib o‘tilgan. Orderlarning arxitektura sohasida tutgan o‘rni va qo‘llanilishi qisqacha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Order, kolona (ustun), Qadimgi Rim orderlari: toskan, doriy, ioniy, korinf, kompozit. Qadimgi Yunon orderlari, klassik order, “antablement”, “baza”, “ant”, “sella”, “portik”, “amfioprostil”.

Order – me’moriy qurilmalardagi turli (vertikal va gorizontal) qismlarning o‘zaro uyg‘unligi, ularning tarkibiy va badiiy uslublaridir. Vertikal qismi ustun (kolona)dan iborat bo‘lib, tana, kapitel(bosha) va poyustun, ba’zan pyedestaldan tashkil topadi. Gorizontal (to‘sin) qismi arxivrav, friz va karnizni, ular birgalikda esa antablementni tashkil qiladi. Orderning mumtoz tizimi Yunonistonda paydo bo‘lgan. Asosiy orderlarning nomlari yunon qabila va viloyatlarining nomlari bilan nomlanadi. Orderning dastlabki har xil tizimlari Qadimgi Misr va Eron xalq me’morligida qo‘llanilgan. Qadimgi Rimda shakllangan mumtoz orderlarning tizimi jahon me’morligining yuksalishiga katta hissa qo‘shdi.



1-rasm. Orderlarning gorizontal qismlari

¹ Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti - “Ma’daniy meros ob’ektlarini asrash” kafedrasini o‘qituvchisi

² Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti 101-MMOA guruh talabasi

³ Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti 101-MMOA guruh talabasi



Qadimgi Rim orderlari. Rim me'morchiligi Yunon me'morchiligidan imoratlari rang-barangliligi va muhtashamligi bilan ajralib turadi.

Rim arxitekturasida order sistemalarining asosiy badiiy ifodalanish vositasi sifatida ishlatilgan. Qadimgi Yunoniston an'analari asosida Rim arxitekturasida orderlarning besh turi ishlatilgan. Bular: toskan, doriy, ioniy, korinf va kompozit turlari hisoblanadi.


Toskan orderi o'zining tuzilishi bilan oddiy va shakli bo'yicha og'ir nisbatlarga ega hisoblanadi.

Rim doriy orderi tuzilishi, shakli va nisbatlari bo'yicha yunon an'alariga to'liq amal qilgan holda ishlatilgan.

Ioniy orderi er.avv. VII asr oxirlarida paydo bo'lgan. U doriy orderidan o'zining nafisligi, bejirimligi hamda tag tomonida stibatga qo'yilgan tag kursining mavjudligi bilan ajralib turadi. Ion orderida tarnovchali ustunning kapitelinii ikki tomonga buralib turgan jingalak sochini eslatuvchi shakl - valyuta va abak tashkil etadi.

Korinf orderi birmuncha kechroq – klassika davrida paydo bo'lgan. U ioniy va doriy orderiga nisbatan jimjimador va ko'rkam, kapitelli akanf daraxti barglaridan tashkil topgan buketni eslatadi. Bu order turi Rim arxitekturasida eng ko'p tarqalgan order turiga aylandi. Bu order nafis nisbatlari va chiroyli kapiteli bilan ajralib turadi.

Kompozit orderi Rim arxitekturasida ishlab chiqildi va o'zida ioniy va korinf orderlari xususiyatlarini birlashtiradi.




2-rasm. Rim orderlarining turlari.

Rim arxitektorlari binoning kichik yoki kattaligiga qarab hamda bino obrazini badiiy ifodalash vazifalariga qarab tantanali va ulug'vor yoki unga teskari oddiy va mahobatli qilib ko'rsatish uchun orderlarning turli xilidan foydalanishgan. Masalan; toskan va doriy orderlari asosan kichik va ahamiyatga ega bo'lmagan binolarda ishlatilgan, ammo korinf va kompozit orderlari esa tantanali va dabdabali jamoat binolari qurilishida ishlatilgan.

Rim arxitekturasida "orderli arkada" nomli yangi tektonik tarkib keng tarqaldi. Bu sistemada ustunlar yuk ko'taruvchi konstruksiya sifatida emas, faqatgina bezatuvchi element sifatida xizmat qiladi. Ko'p qavatli binolarda orderli arkadaning birinchi qavatini toskan yoki doriy orderlaridan, yuqori qavatlarini esa ioniy va korinf orderlaridan bajarilgan.






3-rasm. Rim orderlarining qismlari

Qadimgi Yunoniston orderlari. Qadimgi Yunon arxitekturasida ustunli konstruksiyalardan foydalanilgan. Yunon ustunli konstruksiyalari asosida yangi tektonik tizim yaratilib, bu tizim badiiy jihatdan mustahkam tashkil qilingan. Yunon arxitekturasidagi klassik order binolarning yuk ko'taruvchi va ustki yopilmalari orasidagi bog'lanish va tartibini belgilaydi. Qadimgi Yunon arxitekturasida bunday tizim alohida turuvchi ustunlar va ular ustiga alohida turuvchi ustunlar va ular ustiga qo'yiladigan yopilma – “antablament”dan iborat. Ustunlar o'z navbatida poydevor “baza”ga ega. Klassik order tektonik tizimining ikki qismi – badiiy va konstruktiv qismlari o'zaro uyg'unlashtirilib, munosib shakllarga keltirilgan. Munosiblikning asosiy elementi modul o'lchovi birligi yaratilgan.

Uyg'unlashtirish natijasida ikki order – “ioniy” va “doriy” turdagi ustunlar tizimi yaratilgan. Doriy orderi Yunonistonning arbiy qismida, ioniy orderi esa asosan sharqiy hududlarda rivojlangan. Doriy orderi o'z tizimi bilan oddiy va mahobatli shaklga ega. Ioni orderi yengil va nafis shaklga ega.

Qadimgi Yunonistonda binolarning loyihaviy yechimi ham order sistemasi bilan bog'liq bo'lib, quyidagicha rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan: “ant” turi to'g'ri burchakli xona “sella” va uning oldida to'rt ustunli “portik”lar yasalishi natijasida “amfioprostil” turi esa “sella” ning ikki tomonidan ustunlar qo'yilishi bilan hosil qilingan.





4-rasm. Orderlarning turlari va ko‘rinishi.

Xulosa o‘rinda shuni aytish joizki, bu maqolada Qadimgi Rim va Qadimgi Yunon arxitekturasi, me‘morchiligida orderlarning qo‘llanilishi haqida qisqacha ma‘lumot berilgan. Qadimgi Rim hamda Qadimgi Yunon orderlarining bir-biridan farqi va ishlatilishi aytib o‘tilgan. Rim arxitekturasida qo‘llanilgan orderlar Yunon arxitekturasida qo‘llanilgan orderlardan o‘zining nafisligi o‘zgacha ko‘rinishi bilan farq qilinishi yoritilgan. Yunon arxitekturasida asosan klassika uslubidan kengroq foydalanilgani ko‘rsatib o‘tilgan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Marjona, K., & Nigora, S. (2023). BASIC PRINCIPLES ADAPTATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *Science and Innovation*, 2(11), 68-70.
2. Nigora, S. (2023). STUDY AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF CONSTRUCTIVE SOLUTION OF ARCHITECTURAL ELEMENTS USED IN CULTURAL HERITAGE OBJECTS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 602-605.
3. Nigora, S., & Marjona, K. (2023). OZBEKISTON HUDUDIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTARIDA QOLLANILGAN ARXITEKTURAVIY ELEMENTI: SHARAF VA MUQARNASNING QOLLANILISH VA YASALISH BOSQICHLARI. *Miasto Przyszłości*, 42, 128-132.
4. Nayimovna, F. N., & Nigora, S. (2023). Researching Ways to Reconstruct the Areas of Historical Objects of Old Cities in Uzbekistan. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 2(2), 95-98.
5. Salimov, O. M., Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). Use of Local Building Materials in the Natural Climate of Central Asia. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 8, 129-130.



6. Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). USE OF LOCAL RAW MATERIALS IN THE REPAIR OF PATTERNS AND DECORATIONS OF CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL MONUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 679-683.
7. Ruxshona, A., & Muxlisa, N. (2024). RECONSTRUCTION AND RESTORATION WORK CARRIED OUT AT THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(4), 89-97.
8. Azizbek, T., & Damirjon, A. (2024). Ancient Monument in our Country "Ishratxona". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 994-999.
9. Sa'dullayeva Nigora, X. S. (2024). Stages of Formation and Application of " Gothic" Architectural Style. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 1004-1008.
10. Qaxramonovich, A. K. (2024). XONBANDI TO'G'ONI. *Miasto Przyszłości*, 45, 606-611.
11. Oybekovna, I. S. QASHQADARYO VILOYATI KO'K GUMBAZ MASJIDI.
12. Dilrabo, K. (2023). PROBLEMS IN THE RECONSTRUCTION OF DECOR ELEMENTS OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 633-637.
13. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, 1(9), 121-125.
14. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(11), 50-54.
15. Yuldasheva, M. K., & Kamilova, M. E. (2023). ANALYSIS OF FOREIGN AND DOMESTIC EXPERIENCE IN DESIGNING HISTORICAL LOW-RISE RESIDENTIAL BUILDINGS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 147-152.
16. Ulugbek, T., & Marjona, K. (2024). Revitalizing Old Facades: Innovations in Facade System Installation and Preservation. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 25(1), 10-21070.
17. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 662-665.
18. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Трёхмерная графика. *Журнал "Интернаука"*, (3 (7)), 25.
19. Жураев, Т. Х., Хамраев, Н. Ш., Ураков, О. Х., Абдуманнонов, М., & Саидова, Г. К. (2020). РЕШЕНИЕ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ПОСТРОЕНИЯ ПЛОСКИХ СОПРЯЖЕНИЙ ГЕОМЕТРИЧЕСКИМ МОДЕЛИРОВАНИЕМ ДЛЯ НАПРАВЛЯЮЩИХ ПОВЕРХНОСТЕЙ РАБОЧИХ ОРГАНОВ. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 346-348).
20. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Резьба по дереву в Узбекистане. *Интернаука*, (2-1), 11-13.
21. Khayitboevich, U. O., & Gulnoza, U. (2023). THE HISTORY OF CERAMIC DECORATIONS APPLIED TO CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, 1(10), 210-215.
22. Khayitboyevich, U. O., & Dilshoda, B. (2023). ENGINEERING CONSERVATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 517-520.



23. Xayitboyevich, U. O. (2023). NUROTA VOHASINING TURAR JOYLARNING KOMPOZITSION VA REJAVIY-TARXIY YECHIMI. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 171-174.
24. Khayitboevich, U. O. (2023). Repair Works Carried Out In The Architectural Monuments Of The City Of Nurota. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(11), 56-61.
25. Khaitboevich, U. O. (2021). Ancient nurata karizs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 115-120.
26. Жураев, Т. Х., Волошинов, Д. В., & Ураков, О. Х. (2020). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЛАБОРАТОРИИ ГЕОМЕТРИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В РАЗРАБОТКЕ РАБОЧИХ ОРГАНОВ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 95-97).
27. O'Zme. Birinchi jild. Toshkent , 2000-yil (Google)
28. "Arxitektura tarixi" Muhsin Xidirov , Toshkent , 2004-yil
29. "Me'morchilik asoslari" N.Muxamedova , Toshkent , 2018-yil.

